

## XORIJIY TILLARNI O'RGATISHDA ADABIYOTNING ROLI

**Mahmudova Dilfuza Ulug'bek qizi**

*Maktabgacha va boshlang'ich ta'limdi xorijiy til (ingliz tili) 3-kurs talabasi  
Chirchiq davlat Pedagogika universiteti.*

**Annotation:** Maqolada xorijiy tillarni o'rganishda badiiy adabiyotdan foydalanishning ahamiyati, unga ijodiy (reproduktiv) kompetensiyani shakllantirish omili sifatida qarash masalasi doirasida fikr yuritilgan. Shuningdek, chet tili mashg'ulotlarida badiiy adabiyotdan foydalanishning afzal tomonlari va kamchiliklari to'g'risidagi asos va dalillar nemis pedagog nazariyotchilarining qarashlari bilan taqqoslab o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** badiiy adabiyot; badiiy matn; autentik matnlar; xorijiy til mashg'ulotlari; interpretatsiya; germanevtika; retsepsion estetika; reproduktiv kompetensiya; badiiy adabiyotdan foydalanishning afzallikkari va kamchiliklari.

Xorijiy tillarni o'qitishda badiiy matndan foydalanish pedagoglardan muayyan nazariy va amaliy jihatdan didaktik bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi.

Badiiy matndan chet tilini o'rganishda foydalanishning tarixi juda uzoq emas. XX asrning 70-yillarida chet til o'rganish didaktikasida chet tilidagi autentik matn, dialog kabilardan foydalanish afzal ko'rildi. Ko'p vaqt o'tmay, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini o'rganish boshlanishi bilan chet tilini o'qitishda badiiy adabiyotni qo'llash muhim ahamiyat egallay boshladi.

Chet tili mashg'ulotlarida badiiy adabiyotdan foydalanishni chet til o'qitish didaktikasining bo'limi – badiiy adabiyot(dan foydalanish) didaktikasi o'rgana boshladi. Badiiy adabiyot didaktikasi adabiy tahlil, adabiy tanqid va nazariya bilan shug'ullanuvchi adabiyotshunoslik bilan chambarchas bog'liqdir. Adabiy matnlar nafaqat har bir o'quvchi tomonidan, balki chet tilni o'rganuvchilar tomonidan ham muayyan tarzda tushuniladi, tahlil qilinadi. Shu bois adabiy talqin (interpretatsiya) badiiy adabiyot didaktikasi uchun ham muhim omil hisoblanadi. Adabiy interpretatsiya bilan shug'ullanuvchi asosiy metodlardan biri germanevtika hisoblanadi. Unga ko'ra, matn interpretatsiyasi matn to'g'risida gepoteza qilish va o'sha gepotezani konkretlashtirishning tiganmas jarayonidir. Germenevtika o'quvchini ham, balki uning o'zlashtirgan tajriba, ko'nikma hamda egallagan bilimini ham interpretatsiya qilishni maqsad qiladi. O'quvchi matnga ilk (ko'pincha xato) tasavvur, taassub deb nomlanuvchi (2, 13) o'z hayotiy tajribalari va bilimi bilan yondashadi va ular yordamida matn haqida gepoteza tuzadi. Matnni o'qish jarayonida ular matn mazmuni bilan taqqoslanadi, matn yordamida yanada aniqlashadi yoki ba'zan uning o'zgarishiga turtki bo'ladi. Shu tarzda yana yangi gepoteza uyg'onadi, u yana matn bilan to'qnash

keladi va hokazo. Bu interpretatsiyalar jarayoni “germenevtik doira (hermeneutischer Zirkel)” deb ataladi.

Germenevtika bilan bir qatorda chet tilni o‘rganishda badiiy adabiyotdan foydalanishga turtki bo‘lib xizmat qiladigan keyingi sabab – retsepsion (idrok, zehn) estetika turadi. U germenevtikaning keyingi rivojlanish bosqichi sifatida ham qaraladi. Retsepsion estetikaning diqqat markazida matn emas, balki o‘quvchi hamda uning matnni qay darajada idrok etishi, qabul qilishi turadi. Unga ko‘ra adabiy matn mazmunini dastavval o‘quvchi o‘zicha tuzadi, idrok etadi. O‘quvchining (kitobxonning) badiiy matnni qay darajada tushunishi nafaqat uning o‘z tajribasiga, balki uning milliy madaniyatiga ham bog‘liq. Demak, bir matn turli o‘quvchilar tomonidan turlicha idrok etilishi mumkin, chunki har bir o‘quvchi matnni o‘z individual kechinmalari, tajribasi hamda egallagan bilim-ko‘nikmalaridan kelib chiqib tushunadi. Bundan tashqari, chet tilini o‘rganayotgan o‘quvchi va o‘rganilayotgan til o‘z ona tili bo‘lgan o‘quvchi bir matnni turlicha tushunadi, chunki ular matnga bir xil bo‘lmagan madaniy nuqtai nazardan qaraydilar. Demak, retsepsion estetika chet til o‘rganuvchisi tomonidan adabiy matnlarni muayyan darajada o‘zgacha tushunilishini nazarda tutadi.

Elersning ta’kidlashicha, badiiy matnni o‘quvchining o‘z bilim va ko‘nikmalar, kechinma va tajribasi orqali anglashi uni xato va noto‘g‘ri tushunishga sabab bo‘lishi mumkin. Inson o‘z dunyosini matn yordamida shakllantira olmaydi, bu tushunish, anglab yetish emas. “Tushunish, anglash bu – matn mazmunini, undagi ma’lumotlarni o‘zaro bog‘lay olish, ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni bir-biriga qo‘sha olish demakdir”. Matnda bu bog‘liqliklar to‘g‘ridan-to‘g‘ri berilmaydi, balki ularga muayyan yo‘nalish –ko‘rsatmalar beriladi, xolos.

Bir adabiy matnning har xil o‘quvchi tomonidan turlicha talqin qilinishi, tushunilishi, interpretatsiya qilinishi – bu haqiqatdir. Bu esa o‘sha adabiy matnni chet tili mashg‘ulotlarida muhokama qilishga, uning ustida bahs olib borishga, matn interpretatsiyasining yagona yechimini qidirishga sabab bo‘ladi, boshqacha aytganda, undan gapirish – muloqotni keltirib chiqarish omili sifatida foydalanish mumkin.

Demau, badiiy matnni chet tilining reproduktiv kompetensiyalari – gapirish (og‘zaki nutq) va yozish (yozma nutq)ni o‘rgatish jarayonidagi eng maqbul omil sifatida ko‘rish tavsiya etilishi mumkin.

Chet tilini o‘qitishda badiiy adabiyotdan foydalanishning ijobiylari va salbiy jihatlari mavjud. Chet tili darslarida badiiy matnlarni qo‘llash yoki qo‘llamaslik to‘g‘risida bir qancha asoslar mavjud. Xolisona yondashish maqsadida adabiy matnlarni chet tilini o‘qitishdagi nafaqat afzalliklari, balki kamchiliklari haqida ham fikr yuritiladi. Dastavval, adabiy matnlarning boshqa matnlardan farqli tomonlariga to‘xtalib o‘tiladi.

Badiiy matn deganda qanday matnlar tushuniladi?

Chet tilini o'qitishda matnlardan foydalanmaslikning iloji yo'q, lekin biz qanday matnlardan foydalanashimiz maqsadga muvofiq? – degan savol ham turadi. Javob esa oddiy: qanday matndan foydalanish bu – qo'yilgan maqsadga bog'liq, ya'ni biz nimani o'rganmoqchi ekanligimizga. Har bir matn turi darsda foydalanishda o'zgacha imkoniyatlarni yaratadi. Masalan, muayyan matn turlarida (misol uchun, xat) o'ziga xos lug'at va shakl (Hurmatli...; Hurmat bilan v.b.) uchraydi, demak, xat yozishni o'rganish uchun shu matn turidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Chet tilini o'qitishda foydalanish uchun badiiy va noadabiy (gazetajurnal, dialoglar va boshqalar) matnlar bizning ixtiyorimizda bo'ladi. Badiiy matnlar o'zining estetik-poetik xususiyatlari, milliy-madaniy unsurlarni o'zida aks ettirishi hamda polisemantik xususiyatga egaligi bilan boshqa matnlardan ajralib turadi. Badiiy matnlar orqali o'quvchi (kitobxon) va muallif o'rtasidagi bevosita muloqot amalga oshadi va ular har bir kitobxon tomonidan turli tarzda qabul qilinishi mumkin. Noadabiy matnlar esa buning aksi, ya'ni ular hamma tomonidan bir xil tushuniladi va ularning bir xil interpretatsiya qilinishi talab etiladi.

Badiiy matnlardan chet tili o'rganishda foydalanilayotgan chog'i uchrayotgan kamchiliklari haqida to'xtalganda, shuni aytib o'tish joizki, ular biz so'zsiz – albatta o'qishimiz kerak bo'lgan matnlar emas. Chunki chet elda muayyan maqsadda bo'lgan vaqtlarimizda, hatto kundalik hayotimizda biz ko'proq boshqa matn turlariga, jumladan, transport vositalarida harakatlanish jadvallari, ma'lumotnomalar, taomnomalar, ko'cha yozuvlari, yo'riqnomalar, elektron pochtalar yoki gazeta-jurnal ma'lumotlariga duch kelamiz, ularni o'qishga ehtiyojmandmiz. Chet tili darslarida ushbu faktlarning ham hisobga olinishi, bunday matn turlaridan mashg'ulotlarda foydalanish zarur.

Badiiy matnlarni tushunish uchun o'quvchilardan chet tilini juda yaxshi bilish talab etiladi, shu sababli ulardan, odatda, endigina chet tilini o'rganayotganlar uchun foydalanish tavsiya etilmaydi. Bunday darajadagi o'quvchilarga qisqa she'riy parchalar, bolalar adabiyotidan foydalanish ba'zan tavsiya etilsa-da, bu kabi badiiy matnni tushunish qiyinroq va murakkabroq deb hisoblanadi. Odatiy tilga qaraganda badiiy matnlar o'z tarkibida kengroq mazmunli lug'at, semantik qochirmalar va istisnolarni qamrab oladi. Vesthoffning fikriga ko'ra, buning uchun o'quvchilarda oldindan ma'lum bir bilim-ko'nikmalarni (ma'lum so'z birikmalari va boshqalarni) shakllantirish kerak. Uning fikricha, badiiy matnni tushunish, uni anglab yetib, undan ma'naviy hordiq olish uchun, avval badiiy adabiyotning odatiy tildan farq qiladigan badiiy vositalarini tushuna olish kerak.

Badiiy matnlardan chet tili mashg'ulotlarida foydalanishning afzallikkari haqida quyidagilarni aytib o'tish joizdir:

Yuqorida tilga olingan badiiy matnlar vujudga keltirishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar, kundalik hayotimizda uchraydigan boshqa nobadiiy matn turlaridan

(masalan, transport vositalarida harakatlanish jadvallari, ma'lumotnomalar, taomnomalar, yo'riqnomalar va boshqalar) chet tili mashg'ulotlarida foydalanish zaruriyati muhokamasiz talab etilishiga qaramasdan, badiiy adabiyotni chet tili mashg'ulotlarida qo'llash uchun ham yetarli asoslar mavjud.

1. Adabiy matnlarda matnning boshqa turlarida kuzatilmaydigan polisemiya, konnotatsiya, metafora va boshqalar ko'p uchraydi. Bu esa til kompetensiyasi sifatida talab etiladigan tilning estetik sifatini ta'minlaydi.

2. Bundan tashqari, adabiy matnlar orqali tili o'rganilayotgan mamlakat haqidagi milliy-madaniy, geografik, demografik va boshqa ma'lumotlar bevosita o'rganiladi. Boshqacha aytganda, ular yordamida o'sha mamlakat hayot tarziga nazar tashlanadi.

3. Adabiy matnlarni o'qish talabalarning lug'at boyligini mustahkamlash va kengaytirish, shuningdek o'zлari sezmagan tarzda bevosita grammatik bilimlarni yaxshilashga xizmat qiladi. Kontekst orqali o'rganilgan lug'at va grammatika qoidalarini esda saqlash osonroqdir.

4. Bundan tashqari, adabiy matnlar orqali mashg'ulotlarda umumiyligi ta'lim-tarbiya berish funksiyasi ham amalga oshiriladi. Ular shaxsiy xususiyatlarning shakllanlanishi, taraqqiy etishi va albatta, tili o'rganilayotgan mamlakat haqidagi noto'g'ri fikrlarni bartaraf etishga hissa qo'shadi.

5. adabiy matnlar muloqotni amalga oshirish yoki yozish uchun asos, turtki bo'lishi mumkin. Adabiy matnlar boshqa matnlardan o'zlarining ochiqligi, noaniqligi va ko'p ma'noliligi bilan ajralib turadi. Ularda bo'sh qoldirilgan fikrlar mavjud, ya'ni vaziyat yoki hodisalar to'liq tasvirlanmaydi, balki faqat muayyan jihatlar yoritiladi hamda "kitobxon (o'quvchi)ga o'z hayotiy tajribasi, o'z qarashlari, milliy-madaniy qadriyatları orqali uni tushunishga, interpretatsiya qilishga va o'sha bo'shliqlarni o'zicha to'ldirishga imkoniyat qoldiradi".

Demak, badiiy adabiyot o'quvchilarning o'z fikrlarini bildirish (gapishtirish), muhokama qilish yoki kreativ tarzda yozish kompetensiyalari rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Adabiy matnlarni tanlash mezonlari to'g'risida fikr yuritilganda, qanday adabiy matnlardan chet tilni o'qitishda foydalanish maqsadga muvofiqligi, foydali – samaraliroqligi haqida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Adabiy matnlardan foydalanishning afzallik tomonlarini ro'yobga chiqarishning birinchi sharti bizning qanday (munosib) adabiy matnni tanlashimizga bog'liqdir. Adabiy matnlarni tanlashda quyidagi mezonlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. O'rganuvchiga (talabaga) moslashish. Matnni tanlashda o'rganuvchining chet tilidagi bilimi, uning yoshi, matn bilan ishlash tajribasi va albatta, uning qiziqishlari e'tiborga olinishi zarur. Talabalarning qiziqishlarini ham qamrab olish maqsadida matnlarni tanlashda ularning o'zлari ishtiroy etishiga imkon yaratish kerak, degan

taklifni beradi Riymer. Eng muhimi shuki, matnlarning murakkablik darajasi va mavzusi talabalarga mos bo‘lishi kerak.

2. Matn didaktik-metodik funksiyani bajarishi hamda mashg‘ulotga qo‘yilgan maqsadga mos bo‘lishi zarur. Agar matndan foydalanishda muloqot (gapisht kompetensiyasi) yoki yozishni (kompetensiyasini) rivojlantirish maqsad qilib olinsa, matnda ochiq qoldirilgan fikrlar, tugallanmagan gaplar, yechimsiz muammolar, mulohazalar, bahslar mavjud bo‘lishi shar va ular to‘g‘risida o‘rganuvchilar o‘z qarashlari, mulohazalarini bildirishga majbur bo‘lishi, hech bo‘lmaganda shunday imkoniyatga ega bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, matn tili o‘rganilayotgan mamlakatga xos ma’lumotlarni ham o‘z ichiga olishi tavsiya etiladi. Shu bilan birga, matnning qiziqarli hamda interpretatsiya qilish uchun qulay, mazmunga boy bo‘lishi talab etiladi.

3. Matnning murakkablik darajasi. Bunda biz ob’ektiv va sub’ektiv murakkablikni farqlashimiz kerak. Sub’ektiv murakkablik deganda, o‘rganuvchining shaxsiyati e’tiborga olinadi, ya’ni uning dunyoqarashi, matnlar bilan ishlay olish ko‘nikmalari va qiziqlishi ahamiyatlidir. Ob’ektiv murakkablik esa, matnning tuzilishi, mazmuni, badiiy qurilishi va shu kabilar nazarda tutadi. Ularni quyidagicha tavsiflash mumkin:

- Matn o‘rganuvchining qarashlari, boshqacha aytganda, dunyosidan qancha uzoq bo‘lsa, u kitobxonga shuncha ko‘p qiyinchilik tug‘diradi. Shu sababli zamonaviy badiiy adabiyotdan foydalanish tavsiya etiladi, chunki bu bugungi kun kitobxonining kundalik hayotiga yaqinroqdir.
- Matn qanchalik odatiy (oddiy) til normasidan yiroq bo‘lsa, u shuncha murakkab bo‘ladi.
- Mavhum yoritilgan matnlardan ko‘ra aniq chizma va tasvirli harakatlarga boy matnlarni tushunish uchun osonroq kechadi.
- Oddiy badiiy syujetlar, murakkab syujetlar nisbatan ancha tushunarli bo‘ladi.

#### Adabiyotlar:

1. Bischof M., Kessling V., Krechel R. Landeskunde und Literaturdidaktik. Fernstudieneinheit 3 (Cultural studies and literary didactics. Distance learning unit 3), Berlin: Langenscheidt, 1999, 288 p.
2. Ehlers S. Lesen als Verstehen: Zum Verstehen fremdsprachlicher literarischer Texte und zu ihrer Didaktik. Fernstudieneinheit 2. (Reading as understanding: for understanding foreign-language literary texts and their didactics. Distance learning unit 2.), Berlin: Langenscheidt, 1992, 13 p.
3. Götz D., Haensch G., Wellmann H. Langenscheidts Großwörterbuch. Deutsch als Fremdsprache. Das neue einsprachige Wörterbuch für Deutschlernende. 5. Aufl., (Langenscheidt's dictionary. German as a foreign language. The new monolingual dictionary for learners of German. 5th edition,), Berlin: Langenscheidt, 1997, 9-98 (78 p.)
4. Heyd G. Aufbauwissen für den Fremdsprachenunterricht (DaF). (Advanced knowledge of foreign language teaching (DaF).), Tübingen: Gunter Narr Verlag, 1997, 121-122 (121 p.)